

.....

BOBUR OILASIDA FARZAND TARBIYASI

Gulnoza Samadova
Alfraganus universiteti
Sharq filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari – boburiylar sulolasining ilm-fan, adabiyot va madaniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tadqiq etiladi. Unda Boburning farzandlari Humoyun, Komron, Askariy, Hindol Mirzolar hamda Gulbadan begimning ijodiy merosi, ularning shoirlik va tarixnavislik faoliyati yoritilgan. Maqolada Boburning farzandlar tarbiyasi, ularni ilm-ma‘rifatga yo‘naltirish borasidagi sa‘y-harakatlari, xususan, maktublari va “Mubayyin” asarining ma‘rifiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Humoyun Mirzo, Komron Mirzo, Askariy Mirzo va Hindol Mirzolarining she‘riy merosi, Gulbadan begimning “Humoyunnoma” asari hamda boburiylar sulolasining keyingi avlodlari tomonidan adabiy an‘analar davom ettirilgani haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijasida boburiylar sulolasi nafaqat siyosiy hukmdorlar, balki ilm-fan, she‘riyat va tarixnavislik rivojiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlar sulolasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, boburiylar sulolasi, ko‘ragoniylar, Humoyun Mirzo, Komron Mirzo, Gulbadan begim, “Humoyunnoma”, “Boburnoma”, she‘riyat, tarixnavislik, ilm-ma‘rifat, adabiy meros.

Ilm-u adabiyot osmonida har bir buyuk shoir va yetuk olim bir porloq yulduz bo‘lsa, shubhasiz, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning farzandlari, ya‘ni ko‘ragoniylar yo boburiylar sulolasi bir kahkashondir. Hindistonning mashhur siyosatchisi va tarixchisi Javohirlal Neruning aytishicha: “Bobur san‘at va adabiyotning ulkan homiysi, boburiylar saroyi juda shukuhli, boy va misli ko‘rilmagan saroy edi”.

Albatta, bunday saroy va bunday madaniyat o‘zidan-o‘zi qurilmaydi. Shoh va shahzodalar olim, shoir va madaniyatli kishilar bo‘lmasalar, ilmu madaniyat rivojiga u qadar parvo qilmasliklari mumkin. Ammo Bobur, uning to‘rt o‘g‘li va bir qizi –

Humoyun, Komron, Askariy, Hindol va Gulbadan begim ham tarixda chuqur iz qoldirgan shoir, tarixchi, ilmu san'atni yaxshi o'rganib, o'zlashtirgan kishilar edilar. Ulardan bo'lgan farzandlarning barchasi ham ota-bobolarining izidan borib, atoqli shoir, adib va olimlar sifatida ilmu san'at rivojiga katta hissa qo'shib keldilar.

“Boburnoma”da yozilishicha, Bobur o'z farzandlarining ta'lim-tarbiyasi haqida hamisha o'ylab, ularni o'qish va o'rganishga targ'ib qilar ekan. U “Mubayyin” risolasini Humoyun va Komronga diniy masalalarni o'rgatish uchun nazmda yozadi. Boburning Humoyun va Komronga yozgan maktublari ham shu mavzuga qaratilgan. Masalan, u Komronga yozgan maktubida bunday deydi: “Farzandi arshad va arjumandi saodatnishop Muhammad Komron Mirzo bahodirga salomi muhabbat anjomidan so'ng ulkim, ko'kaltosh va ichkilaring bila sabaq o'qurg'a ruju' kelturub ermishsen. Bu jihattin ko'ngulga surur va xotirga huzur yetib na bisyor xushholliq yuz berdi. Tangri taolo dargohidin umidim borkim, jami'i qobiliyat va salohiyat bobida komil va mukammal bo'lub kamolg'a yetgaysen”.

Humoyunga yozgan maktubidan: “Yana men degandek bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'qiy olmas eding. O'qiy olmagandin so'ng albatta tag'ir berur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'ladur, vale asru mug'laqtur... Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'lodur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur. G'oliban xat biturda kohillig'ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bitiy. Ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'quvg'uchig'a...”.

Ko'rinib turibdiki, Bobur farzandlarining diyonatli, ilm-fazilatli bo'lib o'sishi uchun ularga kitob tanlab yuborish, ularning o'rganishi uchun kitoblar yozishni otalik va podshohlik burchi deb hisoblagan, ularni o'qish-o'rganishga targ'ib qilib, imlo va insho xatolarini to'g'rilab bexato, sodda, ravon va betakalluf yozishga chorlagan.

Albatta, Boburning bunday sa'y-harakatlari zoe ketmadi. Uning to'rtala o'g'li, qizi, nabiralari va ularning farzandlari ilmu san'at, she'ru adabiyotda nom qozondilar. Ko'ragoniylar yo boburiylar sulolasidan ko'p sohibdevon shoirlar, tarixchilar, faqihlar, diniy va dunyoviy olimlarning ismini tazkiralardan keltirish mumkin. Ularning hammasini tilga olib o'tish yo ular haqida bir-ikki og'iz so'z aytish ancha vaqt talab

qiladi. Bu haqda hattoki kitoblar yozish ham mumkin. Biz bu o‘rinda Boburning faqat shoir va tarixchi farzandlari haqida so‘z yuritib, ular asarlaridan bir-ikki misol keltirib o‘tamiz.

Boburning to‘ng‘ich o‘g‘li Nosiruddin Muhammad Humoyun 913 (1507) yili zulqa‘da oyining to‘rtinchi kechasi Kobulda tug‘ildi. Onasi Mohim begim Sulton Husayn Boyqaro xonadoniga yaqin bir bekning qizi edi. Humoyun Mirzo otasi vafot etgandan so‘ng Dehli taxtiga ega bo‘lib, 26 yil podshohlik davrini surib, 963(1556) yili rabi ul-avval oyining 14chisida Dehlida olamdan ko‘z yumdi.

Humoyun Mirzo ham otasidek iste‘dodli shoir edi. Podshohlik yumushlari, ichki va tashqi dushmanlar, ya‘ni ukalari va lo‘diylar bilan to‘xtovsiz olib borgan janglari sababli she‘r yozishga ko‘p vaqt topolmasa ham, undan bir qancha g‘azallar, ruboiylar, qit‘alar va boshqa she‘riy parchalardan iborat (asosan forsiyda) bo‘lgan bir devon qoldi. Bu devon doktor Hodiy Hasanning tas‘hih va ihtimomi bilan Hindistonda bosilib chiqdi. Bu devondan bir qancha she‘riy namunalar tazkiralarda ham keltirilgan.

Humoyun Mirzoning kalomidan namunalar:

Hardam zi firoqi tu malolest maro,

Har ro‘z zi hijroni tu solest maro,

Holest ba g‘urbatamki natvon guftan,

Subhonolloh, g‘arib holest maro.

Mazmuni: Har dam firoqingdan qayg‘uraman, har kun hijroningda bir yildek o‘tadi. G‘urbatdagi hol-ahvolimni aytolmayman, Subhonolloh, g‘arib holim bor.

Ey, manzili mohi alomat avji Surayyo,

Ro‘yi zafar az oyinai tig‘i tu paydo.

Mazmuni: Ey, bayrog‘ing joyi Surayyo avjidadir, tig‘ing ko‘zgusida zafar namoyondir.

Menki bulbuldek gulidin kuymisham ohang ila,

O‘t solibtur jonima ruxsora gulrang ila.

Humoyun Mirzoning asarlari hali to‘la topilgan emas.

Masalan, yaqinda biz uning ikki bayt she‘rini Sodiqiy Kitobdorning “Majma ul-xavos” tazkirasida uchratdik. Mana, o‘sha baytlar:

G‘ariyblig‘ g‘amidin mehnatu malolim bor,

*Bu g'amdin o'lmaka yetdim, g'ariyb holim bor.
Visoli davlatidin ayrilib ne-ne mahzun,
Tirikmenu bu tiriklikdin infiolim bor.*

Boburning ikkinchi o'g'li Muhammad Komron Mirzo 914(1508) yili tug'ildi. Uning onasi Gulrux begim turkman urug'iga mansub bo'lgan bekchik amirlaridan birining qizi edi. Komron Mirzo otasi hayotligida Qandahor va Kobulda hukmron edi, Humoyun Mirzo taxtga o'tirgach, Panjob viloyatini ham unga in'om etdi. Ko'p vaqt o'tmay og'a-inilar orasida kelishmovchiliklar va nizolar paydo bo'lib, Humoyun Mirzo Eronga qochishga majbur bo'ladi va Komron Mirzo Afg'oniston hududida o'zini podshoh deb e'lon qiladi. Humoyun taxtni qaytarib olgach, 960(1553) yili Komron Mirzoning ko'ziga mil torttiradi. So'ng u haj ziyoratini niyat qilib Hijozga ravona bo'ladi. Uch marotaba haj qilib, to'rtinchi yili haj marosimini ado etayotganda Arofatda 964(1557) yili zulhijja oyining 15inchisida vafot etib, Mualllo qabristonida Xadichai Kubro mozori yaqinida dafn etiladi.

Komron Mirzo ajoyib iste'dodli, shirinkalom, darveshmaslak shoir edi. Undan o'zbek va dariy tillarida yaratilgan jozibali g'azal, ruboiy, qit'a, masnaviy va fardlardan iborat to'liq devon qolgan. Bu devonning forscha she'rlarini Muhammad Mahfuzulhaq Hindistonda va o'zbekcha she'rlarini Saidbek Hasan O'zbekistonda e'lon qildilar. Komron Mirzoning to'liq ilmiy-tanqidiy devoni hamda hayoti va ijodi haqida mufassal tadqiqot ushbu maqola muallifi tomonidan 1999 yili amalga oshirilgan. Yana bir muhim jihatni qayd etish kerakki, Bobur farzandlaridan Komron Mirzogina otasi izidan borib, asosan, o'zbek tilida she'rlar yozdi. Holbuki, Boburdan keyingi nasllar ko'proq fors tilida yozib fors tili rivojiga xizmat qildilar. Komron Mirzoning she'rlaridan bir namuna keltiramiz (haftaligimizda Komron Mirzoning ayrim asarlarini e'lon qilganmiz):

*Ahbobqa xushturur rafiq o'lsa kishi,
Imdod ila homiy tariq o'lsa kishi,
Islom eliga jon bila tarvih qilib,
Bir-birga bu besh kun shafiq o'lsa kishi.*

Askariy Mirzo Komron Mirzoning tug'ishgan inisi bo'lib, 922(1517) yili Kobulda dunyoga kelgan. Humoyun Mirzo taxtga o'tirgach, Sunbul viloyatini unga

in'om qildi, ammo Askariy Mirzo akasi Komron Mirzo bilan qo'shilib, Humoyunga qarshi isyon ko'tardi. Qiyinchiliklarga duch kelib, 961(1554) yili haj niyati bilan yo'lga chiqdi, lekin maqsadga yetolmay, haj yo'lida – Shom va Makka o'rtasidagi bir joyda vafot etib, o'sha yerda dafn qilindi.

Askariy Mirzo ham otasi Bobur va aka-ukalaridek iste'dodli edi. Undan devon qolgan-qolmagani hozirgacha noma'lum, ammo bir qancha tazkirachilar uning mahoratli shoir ekanligini tasdiqlab, go'zal she'rlaridan namunalar keltirganlar. Biz quyida uning kalomidan bir necha misol keltiramiz:

*Ey Askariy, ar masti mudomi xush bosh,
Var mu'taqidi bodavu jomi xush bosh,
Gufti: ba xarobot nabosham be u,
Bo yor agar darin muqomi xush bosh.*

Mazmuni: Ey, Askariy, agar mudom mastsan, xursand bo'l; Agar bodayu jomga e'tiqoding bo'lsa, xursand bo'l. Xarobotda usiz bo'lmayman, deding; Agar yor bilan bu muqom (makon, joy)da bo'lsang, xursand bo'l.

*Chunun ki xo'y giriftam ba oshnoyi tu,
Halok mekunadam mehnati judoyi tu.*

Mazmuni: Mundoqki, oshnolig'ingga o'rganganman, Hajring qayg'ulari meni o'ldiradi.

Hindol Mirzo 925(1520) yili Kobulda tug'ildi. Uning Hindol deb nomlanishiga sabab: Boburshoh Hind mulkini tasarruf qilish niyati bilan yo'lga chiqib, Hindistonning bir necha viloyatlarini qo'lga kiritgan chog'da Hindolning tavalludini eshitib, irim qilib, unga Hindol deb nom qo'ydi.

Hindol Mirzoning onasi Dildor begim bo'lsa-da, Mohim begim qo'lida tarbiya topgani sababli, og'a-inilar orasidagi nizolarda har doim Humoyun tomonida turib, unga yordam berardi. Shu janglarning birida 958(1551) yili Jalolobod shahri yaqinida Komron Mirzoning askarlari Humoyunning o'rdusiga tunda hujum qiladilar va askarlardan biri Hindol Mirzoni tanimay, halok etadi. Uning jasadi Kobulga keltirilib, Bog'i Boburda otasi Boburshohning oyog'i ostida dafn etildi.

Hindol Mirzoning ham zabardast, nozikxayol shoir ekanligini bir qancha tazkirachilar tavsif etib, uning she'rlaridan go'zal namunalarni o'z tazkiralarda naql

qilganlar. Quyidagi namunalar ham Hindol Mirzoning yetuk iste'dodi va mahoratini isbotlay oladi:

*Z-on qatrai shabnam ki nasimi sahari,
Az abr judo kunad ba sad jilvagari,
To bar ruxi gul chakonad, ey, rashki pari,
Haqqo ki hazor bor pokizatari.*

Mazmuni: Tong yeli bulutdan yuz jilva bilan ajratib, gul yuziga tomizgan o'sha shabnam tomchisidan ko'ra, ey parilar rashki, haq gap shuki, sen ming bor pokizaroqsan.

*Sarvi qadi tu moili ahli, niyoz nest,
Nozest dar sari tu ki dar sarvinoz nest.*

Mazmuni: Sening sarv qadding niyoz ahliga moyil emas, senda shunday noz borki, hatto sarvinozda ham yo'q.

Gulbadan begim: Boburning bu fazilatli, bilimli qizi Kobulda 932/933(1526/1527) yil atrofida Dildor begimdan tug'ildi, ammo ukasi Hindol Mirzodek Mohim begim tarbiyasi ostida bo'ldi. Shu sababli Humoyun Mirzoga atab «Humoyunnoma»ni yozdi. U to'rt yoshida otasidan abadiy ayrilgan bo'lsa-da, otasining tarixchilik iste'dodini meros oldi.

“Humoyunnoma” Humoyunning podshohligi davrida yuz bergan voqealarga bag'ishlanadi. Shuning uchun 937-963(1530-1556) yillar voqealarini aks ettirishi kerak edi, ammo asarning qo'lyozmasidan oxirgi sahifalari yo'qolgani sababli Komron Mirzoning nobino qilingani voqeasiga kelib, tugamay qolgan. “Humoyunnoma”ning forsha matni inglizcha tarjimasi bilan A.Bevirij orqali Londonda va o'zbekcha tarjimasi forsha matni bilan birgalikda O'zbekistonda S.Azimjonova tomonidan chop etilgan.

“Humoyunnoma”ning biryoqlama yozilgani nazarda tutilmasa (unda Humoyun qanchalik maqtalgan bo'lsa, Komron o'shanchalik qoralangan), uni o'sha davrni aks ettiruvchi eng daqiq va mustanad asar deb, tan olish mumkin. Bu asarning juda ixchamligi, ravon uslubda yozilgani hamda fasohat va balog'at avjida ekanligini ko'plab tazkirachilar, tarixchi olimlar ta'kid etganlar.

Gulbadan begim uzoq umr ko'rdi. 983(1576) yili haj ziyoratiga musharraf bo'ldi,

Humoyun va Akbardan ko‘p hurmatlar ko‘rib, vafot etganidan keyin jasadi Kobulga olib borilib, dafn etildi.

Aytib o‘tganimizdek, Boburshohning nabiralari va ularning farzandlari ham she‘riy iste‘dodni Boburshohdan meros olib, she‘ru adabiyot an‘analarini ko‘ragoniylar oilasida davom ettirdilar. Misol uchun, Komronning qizi Gulruxbegim va o‘g‘li Abulqosim Shavkatiy, Akbar, Shoh Jahon va uning zavjalari, Avrangzebning qizi Zebunniso begim, Bahodirshoh Zafar va boshqalarning nomi, asarlari ayrim tazkiralarda zikr etilgan. Demak, Boburshoh nafaqat buyuk bir imperiyani, eng shavkatli bir madaniy davrni o‘z farzandlariga meros qilib qoldirmadi, balki shoirlik va tarixchilik iste‘dodini, ilmparvarlik va san‘atga qiziqish kabi oliy xislatlarni ham qoldirib, tarixda boburiylar (ko‘ragoniylar) nomini manguqlikka erishtirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bobur. O‘zME. B-harfi Birinchi jild. –Toshkent, 2000.
2. Lebedeva T. I., O neissledovannykh pogrebeniyakh Guri Amir //Arkheologiya, istoriya i kul'tura Sredney Azii. Tashkent, 2002, s.68 O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Mansura Haider, Relations of Abdullah Khan Uzbek with Akbar // Cahiers du Monde russe et soviétique, Vol. 23, No. 3/4 (Jul. –Dec., 1982), p. 313
4. Bobur. Tanlangan asarlar. –Toshkent: 1958; Bobur. Asarlar. Uch jildlik. –Toshkent:Fan, 1965-66; Bobur. Boburnoma. –Toshkent:1960, 1989; Bobur. Muxtasar. Toshkent, 1971.
5. Andaniyozova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017. – B.132.
6. Qoraev T. Adabiy taxalluslar haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1967. – №1. – B.54-58.
7. Shamsiev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug‘ati. –Toshkent, 1972. – B.601.
8. Rahmatov, M. (2023). “BOBURNOMA” ASARIDA KIRITMA IBORALAR. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).
9. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she‘riyatda Bobur g‘azallarining poetik xususiyatlari. Alfraganus, (1 (1)), 30-34.

10. Botirova, S. I. (2024). AESTHETIC PERCEPTION AND GENRE HARMONY. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(05), 80-85.
11. Botirova, S. I. (2024). LANDSCAPE IN SHORT ART. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 5(06), 38-44.
12. Isamiddinovna, B. S. THE STREAM-OF-CONSCIOUSNESS TECHNIQUE IN NONTRADITIONAL NOVELLAS: NEW STYLISTIC EXPLORATIONS IN UZBEK LITERATURE.
13. Botirova, S. (2025, November). AKADEMIK LITSEYDA O'ZBEK TILI O 'QITISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 01).
14. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.
15. Abduraimova, N., Sharopova, N., Khujaev, M., Sapayev, V., Fattoyeva, O., & Yusufov, S. (2025). Economic development through analysis of the education and entrepreneurship impacts. *Economic Annals-XXI/Ekonomičnij Časopis-XXI*, 214(3/4), 84.